

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MILLIY RUHDA TARBIYALASHDA
O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI (DOSTON, ERTAK, MAQOL) NING BUGUNGI
KUNDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Vohidova Dildora Xolmamatovna

Qashqadaryo viloyati Kasbi tuman

13-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliylik ruhida tarbiyalashda o'zbek xalq og'zaki ijodi aynan doston, ertak, maqolning o'rni va ahamiyatli tomonlari yoritib o'tilgan. Hamda boshlang'ich ta'lim darsliklarida xalq og'zaki ijodini takomillashtirish borasida takliflar berilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich, o'quvchi, milliy, ta'lim, tarbiya, xalq, doston, ertak, maqol, o'qituvchi, ota-ona.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi zamonda har bir el va yurt bor ekan o'zligini va milliyligini saqlagan holda rivojlanishga harakat qilmoqdalar. Eng katta va mas'uliyatli ish bu milliylik va tilni asrab avaylab, kelgusi avlodga yetkazish har birimizning oldimizda turgan vazifamiz hisoblanadi. Bugun atrof to'la tarbiyaviy maskanlarga va bularning hammasini ham biz ijobiy tomonda deya olmaymiz. Ularning ichida yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan hamda ularni o'z milliyligidan mahrum etadigan va manqurt kabi tarbiyalaydigan qo'shtirmoq ichidagi tarbiyalarni tarbiya deyishga haqqimiz yo'q.

"Xolisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-marifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur." Muhtaram yurtboshimiz yuqorida qayd etib o'tganlaridek tarbiya jarayonini bir zumga ham tox'tatib bo'lmaydi. Aks holda, o'z ko'zlagan maqsadimizga yetisha olmaymiz va yoshlarimizni boshqalar qo'lga topshirib qo'ygan bo'lamiz. Internet tarmoqlari va televidinyadagi ba'zi bir bizning tarbiyamizga yot bo'lgan og'ishlarni ko'ramiz. Biz ularga farzandlarimizni tayyor xo'rak qilib berib qo'ymasligimiz kerak va ularda milliylik menini shakllantirishimiz, har qanday begona tarbiyamizga zid bo'lgan qarashlarga qarshi bo'lgan imunitet shakllantirmog'imiz zarur. Bunda biz ota-onalar, o'qituvchi va shu millatning har bir vakili qattiy turishi shart va zarurdir. Shu o'rinda muhtaram yurtboshimiz Sh. Mirziyoyevning fikrlarini o'zimizga shior qilib olsak bo'ladi. "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatiga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan

insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.



Tarbiyaning katta o'chog'i hisoblangan o'zbek xalqining durdonalari hisoblangan xalq og'zaki ijodi necha asrdiki avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Shu paytga qadar bu durdonani xalq pedagogikasi desak bo'ladi. Bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q va qadrlidir. Xalq og'zaki ijodi o'z navbatida shu xalqning o'tmishi, madaniyati, urf-odatlarini, tili, dini kabi xususiyatlarini ochib beradi. Bugungi kunda ham hech ikkilanmasdan biz xalq og'zaki ijodiga murojaat qilishimiz va uni ta'lim tizimi jarayonida qo'llashimiz mumkin. Bu, albatta, biz o'ylagan natijani beradi. "Alla, ertak, topishmoq, maqollarda kuzatganimizdek, odamlarga, jonivorlarga, tabiatga, bo'lgan mehr-muhabbat, do'stlik va o'rtoqlikning ilk tuyg'ulari, yaxshilikka nisbatan uyg'ongan dastlabki minnatdorchilik hissi, har narsaga chanqoqlik bilan qiziqib qarash - bularning bari bolaning ma'naviy dunyosini boyitishi, uning xayoli va tasavvurini kengaytirishi lozim"

Boshlang'ich ta'lim jarayonida biz doston, ertak, maqol, matal, topishmoq, rivoyat kabi janrlardagi asarlar bolalarning dunyoqarashi bilan bir qatorda ta'limiy va tarbiyaviy bilimlarini ham oshirishga yordam beradi. Bu janrlar ichidan ertakni ko'radigan bo'lsak, bu janr boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos bo'lgan asar hisoblanadi. "Ertak- xalq to'qigan badiiy asar. Hali kitob yo'q vaqtda odamlar bir-birlariga ertaklar aytib berishgan. Bir kishi birovdan eshitgan ertagini boshqa kishiga so'zlab bergan." Ertakda qahramonlarning qiziqarli bo'lishi, bunda aynan hayvonlarning, narsa-buyumlarning odamlar kabi so'zlashi har bir bolani qiziqitirmasdan qolmaydi. "Zumrad va Qimmat", "Tulki bilan laylak", "To'g'riboy bilan Egriboy", "Bo'g'irsoq", kabi ertaklarda odamlar qatorida hayvonlar va narsalar ham gapiradi. Bularning barchasi ertakning o'qimishli bo'lishini va uning tezroq natija ko'rsatishini ifodalaydi. Ertaklarning barchasi o'z o'rnida tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulardan biz vatanparvarlik, oilaga sadoqat, tabiatga mehr, do'stlarga oqibatlilik, hunar o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni va shu kabi jihatlamani rivojlantirishda

foydalansak bo'ladi. Bu yerda o'quvchining fikrlash va topqirlik qobiliyatini ham rivojlantiradi. 3-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi "Tulki bilan laylak" ertagini misol qilib olishimiz mumkin.

1. Laylak nima uchun tulkinging uyida ovqatlana olmadi?
2. Laylak nima uchun ovqatni ko'zda berdi?
3. Tulki nega: "Ha, boplading-ku", deb ichida aytdi?

Ovoz chiqarib aytsa, nima bo'lardi?" aynan bu savollarning berilishi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini va hayvonlar hayoti haqida bilimga ega bo'lishiga ko'proq e'tibor qaratilgan. Birinchi savolga bolalar laylakning tumshug'i uzunligini va u ochiq idishda ovqat yeya olmasligini ayta olishi, bilmaganlari esa buni bilib olishlari kerak hisoblanadi. Ikkinchi savolga esa laylak tumshug'i uzun bo'lganligi uchun aynan tulkiga shu idishda ovqat berganligini aytishi kerak. Oxirgi savolga esa aynan yomonlikka yomonlik va yaxshilikka yaxshilik qaytishini aytib o'tishi kerak. Agar bola shu ertakdan mana shu savollarga javob topa olsa demak ertakdan ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Ikkinchi janr bu maqollar hisoblanadi. Maqollar har bir yosh toifasida topqirlik va zukkolik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Maqollar ham necha asrlar davomida insonlarning og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan nodir durdonalaridan hisoblanadi. So'z ko'rki maqol deganlaridek, gapni mazmunli va ma'noli qilishda, suhbatdoshga fikrimizni qisqa va lo'nda qilib yetgazishda yaqindan yordam beradi. Boshlang'ich ta'lim tizimida har bir fanlarni o'qitishda biz hech ikkilanmasdan maqollarni ishlatsak bo'ladi. Bu bolalarning zehni oshirish bilan bir qatorda ularning topqirligi va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin. "Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi". Kundalik turmushning har bir jabhasi uchun biz juda ko'plab maqollari ishlatishimiz mumkin. Qaysi mavzuda suhbat yuritmaylik maqollarni nutq jarayonida qo'llasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalarga biror qiziqarli gap yoki maqol aytadigan bo'lsak ular, albatta, u nima? Bu nima? Nimaga unday? deb kattalarni savollarga tuta boshlaydi. So'ng esa biz o'qituvchilar va ota-onalar ularning ma'nolarini tushuntirib bersak va ularga tushunishiga yordam beradigan bo'lsak, bu ayni maqdasga muvofiq bo'ladi. "Maqollarni "Hayot qomusi", og'zaki ensiklopediya, o'ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular kishilarning aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi, turmushning jamiki katta-kichik masalalari xususida qimmatli maslahatlar beradi.

Har bir maqollarni ko'rib chiqadigan bo'lsak hammasida bir olam ma'no mujassamdir. Hozirgi kunda har bir boshlang'ich ta'lim ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida maqollarni uchratishimiz mumkin. "Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni. Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim 16. Bu maqollari ayanan dasrlikda uchratib turibmiz va uning ma'no mazmunini bolalarga quyidagicha tushuntirishimiz

mumkin bo'ladi. Birinchi maqolda bilagi zo'r yani jismonan kuchli odam birni yengishi mumkin ammo bilimi zo'r odam esa mingni yengishi mumkinligini bolaga tushuntirib berishimiz mumkin. Bu maqoldan bolalar aynan jismonan kuchli bo'lgandan ko'ra ma'nan kuchli bo'lish ustun ekanligini tushunib yetadi va ilm o'rganishga harakat qiladi. Ikkinchi maqolda ham ilm o'rganishga bo'lgan da'vatni ko'rishimiz mumkin. Odam bilmagan narsasini so'rab o'rganib boraverishi lozimligi va bu narsa o'ziga foyda keltirishini bilamiz. Aksincha, orlanib, tortinib so'ramaslik esa o'ziga ziyon ekanligini o'rgatadi. Har qanday vaziyatda ham ilm o'rganishdan va bilmagan narsamizni so'rashga undaydi. Bu davrda bolalar juda qiziquvchan va o'rgangan narsasiga qat'iy amal qilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Shu kabi yuzlab maqollarni ko'rib, tahlil qilib chiqishimiz mumkin. Hamda ularning hammasi tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. "Maqollar ona tilining eng nozik badiiy xususiyatlarini bilishga va so'z boyligini ham oshirishga ko'maklashuvchi bir vosita sifatida xizmat qiladi. Kuzatishlarimizdan shunday xulosaga keldikki, deyarli barcha maqollarda, birinchi navbatda, bola tarbiyasi-odob yotar ekan"

Maqollarni har bir darslikda qo'llashimiz mumkin. Matematika, tarbiya, tabiiy fanlar, jismoniy tarbiya va boshqa fanlarda ham o'z samarasini beradi. Keling, matematika darslariga maqollarni qo'llashni ko'rib chiqamiz. Masalan, oltovlon ola bo'lsa og'zidagini oldirar, to'rtovlon tugal bo'lsa tepadagini endirar. Yetti o'lchab bir kes. Bir yigitga qirq hunar oz. Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda. Mana shu kabi yuzlab maqollarni matematika darslarida qo'llay olishimiz mumkin. Bunda boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini raqamlar orqali hisoblashga va maqoldagi ma'noni chaqishga, va nima deyilayotganini anglashga yordam beradi. Birinchi maqolda ko'p kishi bo'lsa-yu, ammo ahil bo'lmasa bir ish qilolmasligini va oz kishi bo'lsa ham ahil va inoq bo'ladigan bo'lsa, ko'zlagan maqsadiga yetishi mumkinligini aytadi. Bolalar bu yerda sonlarning ko'pligiga emas, balki uning qiymatiga qarashni o'rganadi. Yetti o'lchab bir kes maqolida ham bolalarni chuqur o'ylashga, shoshma-shosharlik qilmaslikka undaydi. Demak, yetti o'ylab bir qaror qabul qilishi kerakligini aytadi. Yer haydasang kuz hayda kuz haydamasang, yuz hayda. Bunda bolalarning yerni kuzda haydash va yangi ekin yiliga tayyorgarlik ko'rish kerakligini aytadi. Agar kuzda yerni haydamasa, yuz haydasa ham yaxshi hosil bo'lmasligini bolalar uqib oladilar. Aynan bu yerda dehqonchilikka oid bilim ham yotadi. Raqamlar ishtirok etadigan barcha maqollarni matematik savodxonlikni oshirish uchun ishlatsak bo'ladi. Shu kabi maqollarni barcha fan doirasida qo'llashimiz mumkin.

Uchinchi janr bu dostonlardir. Dostonlar necha asrlardan beri tilidan-tilga o'tib kelayotgan va o'zining ezgu qarashlari bilan har avlodni tarbiyalayotgan durdona tarbiya vositasidir. Qadimda odamlar bugungi kundagidek texnika va texnologiya rivojlanmagan paytda uzun kechalarni va har bir davra suhbatlarini uzun va qiziqadi dostonlar bilan boyitganlar va hordiq olishgan. Dostonni mana shu xalq o'z turmush tarzi va madaniyatidan kelib chiqqan holda yaratganlar. Uni bir yoki ikki kishi emas, balki butun boshli xalq yaratgan hisoblanadi. O'zbek xalq dostonlarida mana shu xalqning chexراسи,

o'zligi, harakteri, tarbiyasi yotadi va ularni tarbiyalashda eng yaqin yordamchi hisoblanadi. "Sharq qadimdan she'riyat tuyg'ulari o'lkasi bo'lib kelgan.... Shuning uchun ham o'tovda istiqomat qiluvchi kishilarda she'riyatga bo'lgan ishtiyoq Parij yoki Londondagi ma'lumotli jamiyat a'zolaridagiga qaraganda kuchliroq ekanligiga hech kim ajablanmasligi kerak..." Dostonlarning she'riy tarzda yozilishi o'quvchini qiziqtiradi va uni eshitishga va o'qishga undaydi. Ayniqsa, dostonlardagi qiziqarli voqealar har bir o'quvchini o'ziga jalb etadi. Dostonlarni katta tarbiya o'chog'i desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Bu asarlar tili sodda va jo'n bo'lib, sekinlik bilan bola ruhiyatini tarbiyalab boshlaydi. "Alpomish", "Ravshan", "Go'ro'g'li", "Malla savdogar" shu kabi dostonlar shu xalqning haqiqiy o'zligining ramzi desak bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida ham dostonlardan unumli foydalanishimiz mumkin hisoblanadi. Endi savol tug'ilishi mumkindir. Doston hajmi jihatidan boshqa janrlardan katta hisoblanadi va bu boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga mos tushmaydi-ku? Bir dostonni bir darsga mo'ljallab bo'lmaydi-ku? Albatta, bu savollar o'rinli hisoblanadi. Hajm jihatidan katta bo'lishiga qaramasdan dostonlarning tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblangan qismlarni parcha shaklida ularga o'qib berishimiz va o'qitishimiz hamda undagi tarbiyaviy ahamiyati haqida suhbat qilishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda multfilm shaklida bolalar dunyosiga kirib borish anchayin oson hisoblanadi. Biz bilamizki, "Alpomish" dostonining multfilm shaklidagi qismini ko'rganmiz va yodimizda. Chet el multfilmlaridan ko'ra milliy dostonlarimiz asosida ishlangan multfilmlarni ko'rish bizga farzandlarimizni milliy ruhda tarbiyalashga yordam beradigan bo'lsa, ikkinchida xalq og'zaki ijodining avloddan avlodga o'tishiga katta yordam bergan bo'lamiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilari qiziquvchan bo'lishadi. Ayanan, ularga dostonlar orqali tarbiyani kuchaytiradigan bo'lsak ular, albatta, o'z natijasini bermasdan qolmaydi. Misol tariqasida mana shuni keltirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Yig'layman, parilar, cheksiz g'amim bor, Shuytib qora ko'zlarimda namim bor,
Sizga demay, kimga deyin, gulyorlar, Otim bilan sizdan boshqa kimim bor "

Bu yerda Go'ro'g'li sultonning otining naqadar unga yaqin do'st ekanligini ko'rishimiz mumkin. Demak, insonga hayvon ham inson kabi do'st bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Undan tashqari shu dostonda Go'ro'lining o'lganini ko'rib oti uni yeti marta aylanib jon taslim qiladi. Hayvonning insonga mehrini ko'rib, yuragimizda hayvonlarga bo'lgan muhabbat ham paydo bo'ladi. Mana shu kabi tarbiyaviy jihatlarini endi tarbiyalanib o'sib kelayotgan o'quvchilar ongiga singdirishimiz kerak. Xalq og'zaki ijodiyoti boshlang'ich ta'lim jarayonida ularni milliy ruhda tarbiyalashga yordam beradi. Faqatgina, bu jarayonni rivojlantirib, yoshlarimiz ongiga singdirishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz." "O'zbekiston" nashriyoti. Toshkent.: 2017.
2. Sh. M. Mirziyoyev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda
3. Bolalar adabiyoti. Mamasoli Jumaboyev. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. barpo etamiz. O'zbekiston. Toshkent.: 2017. Toshkent.: 2008.
4. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-sinf. Toshkent.: 2021
5. Ona tili va o'qish savodxonligi. 3-sinf. Toshkent.: 2022.
6. O'zbek xalq maqollari. T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2005.
7. Hikmatnoma o'zbek maqollarining izohli lug'ati. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Toshkent.: 1990.
8. Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-sinf. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sadullo Quronov, Shokir Tursun. Toshkent.: 2021.
9. Bolalar adabiyoti va ifodali o'qish. Mamasoli Jumayev. "Voris-nashriyot". Toshkent.: 2017.
10. Vamberi G. Очерки Средней Азии.-М., 1868.
11. "Go'ro'g'li" dostoni. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkenti -2006.